

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI TUBDAN
ISLOH QILISH VA YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA**

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni** qabul qilindi.

O‘zbekistonda 30-iyun — “Yoshlar kuni” deb e‘lon qilindi. Turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag‘batlantirib borish maqsadida “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta‘sis etildi.

Yoshlarni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash vazifalarini o‘z ichiga olgan beshta muhim tashabbus amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, yoshlarda zamonaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ularning bandligini ta‘minlash, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, yosh avlodda mustahkam vatanparvarlik g‘oyasi hamda qat‘iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish borasida qator muammolar saqlanib qolmoqda.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-dekabrda mamlakat yoshlari bilan uchrashuvida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari tashkil etilsin.

2. Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin:

yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

yoshlar siyosati sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘z kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari!” g‘oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini amalga oshirishda faol ishtirok etish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik qilish;

yoshlarga oid dasturlar, loyihalar va ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish uchun ijtimoiy buyurtma shaklida ajratiladigan davlat grantlari va subsidiyalarni taqsimlash, ulardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash;

tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini tashkil etish va bandligini ta‘minlash;

iqtdorli yoshlarni yetakchi xorijiy oliy ta‘lim muassasalariga ta‘lim olish uchun yuborish, xalqaro tanlovlarda ishtirok etishini ta‘minlash, yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash vazifalarini qamrab olgan beshta muhim tashabbusni keng joriy etishga qaratilgan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning intellektual salohiyati va iste‘dodini rivojlantirish;

yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko'nikmalarini puxta egallashlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash jarayonlariga ko'maklashish;

yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, yoshlar sohasidagi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz mavqeyini oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rish, xorijda ta'lim olayotgan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish;

yoshlar faoliyati bilan bog'liq sohalarga xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish bo'yicha manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda xalqaro moliya institutlari, donor-mamlakatlar hamda xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

3. Quyidagilarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

yoshlarning innovatsion, amaliy va istiqbolli loyihalariga grant mablag'lari ajratish;

o'z iqtidori va salohiyatini kamol toptirish, kelajakda qiziqqan sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun yoshlarda o'zini o'zi rivojlantirish bo'yicha kuchli motivatsiya uyg'otish maqsadida keng yoshlar davrasida xalqaro miqyosda yuqori nufuzga ega notiqlar jalb qilingan holda motivatsion tadbirlar o'tkazish;

hududlarda yoshlar bandligiga ko'maklashish maqsadida quduqlar burg'ulash (qazish), sug'orish vositalari xarid qilish, yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'lik va ko'chatlar sotib olish uchun subsidiyalar ajratish;

yoshlarning xalqaro fan olimpiadalari va tanlovlarda hamda yosh tadbirkorlarning xalqaro forum va yarmarkalardagi ishtirokini ta'minlash, yoshlarning xalqaro mehnat bozorlariga chiqishiga ko'maklashish;

iqtidorli va jamoat ishlarida faol bo'lgan yoshlarni (birinchi navbatda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan oilalarning farzandlari) bepul yo'llanmalar asosida oromgohlarga yuborish;

yoshlarni kelgusida tegishli sohada malakali mutaxassis bo'lib yetishishlari, shu jumladan tadbirkorlikka o'qitish uchun mamlakatimizda yuqori natijalarga erishgan soha mutaxassislarini jalb etgan holda o'quv mashg'ulotlari o'tkazish;

bitiruvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida barcha hududlardagi oliy ta'lim muassasalari bazasida biznes akseleratorlar tashkil etish;

O'zbekiston yoshlari portalini tashkil etish va unda yoshlar siyosatini baholash milliy indeksleri hamda yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish;

yoshlarni tadbirkorlik va ishbilarmonlikka qiziqtirish hamda ularga bunday faoliyatni yo'lga qo'yishning amaliy jihatlari o'rgatish maqsadida joylardagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tashkilotlariga biznes sayohatlar tashkil etish;

yoshlarni kasbga o'rgatish bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek, yosh tadbirkorlarga huquqiy, buxgalteriya, marketing, brending, bank, sug'urta, mehnat va boshqa sohalarda amaliy ko'mak ko'rsatish uchun konsalting xizmatlari xarajatlarini qoplash;

ko'rgazmali savdo yarmarkalarini tashkil etish;

biznesni yo'lga qo'yishdan daromad olishgacha bo'lgan masalalarni o'rgatishga qaratilgan masofaviy o'quv mashg'ulotlari o'tkazish va yo'llanmalar yaratish;

iqtidorli yosh adib, rassom va hunarmandlar o'rtasida ijodiy ko'rik tanlovlar tashkil etish, yosh mualliflarning ijod namunalari, jumladan, birinchi kitoblarini nashr etish, san'at asarlarini yaratish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish.

Belgilansinki, Agentlik Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirishni to'g'ridan to'g'ri yoki nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy buyurtma shaklida ajratiladigan davlat grantlari va subsidiyalar taqsimlash orqali amalga oshiradi.

4. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash **2-ilovaga** muvofiq tarkibda tashkil etilsin, quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

Dasturda belgilangan tadbirlar, shuningdek, Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'liq va sifatli amalga oshirishda yaqindan ko'maklashish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli vazirlik idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

mazkur Farmonda belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, to'liq hajmda va samarali amalga oshirilishini ta'minlash, aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish choralari ko'rish;

Farmon ijrosining doimiy monitoringi va tahlilini olib borish hamda ularning natijalari yuzasidan har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga axborot va asoslantirilgan takliflar kiritib borish.

5. Agentlik:

a) 2020-yilda tegishli sohalarga Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida respublikaning tuman (shahar)laridagi mahallalarda beshta muhim tashabbusni amalga oshirish uchun quyidagi zaruriy choralarni ko‘rsin:

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan birgalikda madaniyat markazlari va umumta‘lim maktablarida yoshlarni madaniyat va san‘atga jalb etish uchun to‘garaklar tashkil etish hamda ularni musiqa jihozlari bilan ta‘minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi bilan birgalikda umumta‘lim maktablari va sport inshootlarida yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini tag‘rib qilish maqsadida to‘garaklar tashkil etish va ularga sport anjomlari yetkazib berish;

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda yoshlarni qamrab olishga mo‘ljallangan “Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari” faoliyatini yo‘lga qo‘yish, umumta‘lim maktablarida axborot texnologiyalari yo‘nalishida to‘garaklar tashkil etish va kompyuter jihozlari bilan ta‘minlash;

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda yoshlarni kitobxonlikka jalb etish va kutubxonalariga badiiy adabiyotlarni yetkazib berish;

O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda tikuv va to‘qimachilik korxonalarida xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash maqsadida ularni kasb-hunarga o‘qitish;

b) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda hududlar kesimida ishsiz yoshlar ro‘yxatini shakllantirsin hamda ularning bandligini ta‘minlashga qaratilgan manzilli, shu jumladan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirsin:

“Fidoyi yoshlar otryadlari”ni tuzish orqali ishsiz yoshlarni haq to‘lanadigan jamoat va mavsumiy ishlarga jalb etish;

“Yoshlar qurilish otryadlari”ni tashkil etish va oliy ta‘lim muassasalari talabalarini yozgi ta‘til vaqtida haq to‘lanadigan qurilish ishlariga jalb etish;

v) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi hamda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi bilan birgalikda asosiy faoliyati quyidagilarga yo‘naltiriladigan ko‘ngilli yoshlardan iborat volontyorlik guruhlarini shakllantirsin:

qarovsiz va yolg‘iz keksalarga yordam ko‘rsatish, nogiron va imkoniyati cheklangan fuqarolarga ko‘maklashish;

tarbiyasi og‘ir yoshlar bilan ishlash, ularning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish;

g) yoshlar hayotida uchrayotgan muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida tizimli ravishda sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazsin hamda yakuni bo‘yicha har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ular yuzasidan tahliliy hujjatlar kiritsin;

d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda uch oy muddatda yuqori kasbiy salohiyatga ega, tashabbuskor va islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etuvchi yosh kadrlar zaxirasini shakllantirsin.

6. Belgilansinki, 2021-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son [Farmoni](#) doirasidagi:

hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan tadbirlarni “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish, ajratilgan kreditlar bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya va subsidiyalar berish tartibi bekor qilinadi;

loyihalarni kreditlash bozor tamoyillari asosida to‘g‘ridan to‘g‘ri tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan yosh tadbirkorlar biznes loyihalari uchun ajratilgan summasi 2 milliard so‘mdan, foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmaydigan tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlari bo‘yicha foiz stavkasining Markaziy bank asosiy

stavkasidan oshadigan, biroq 10 foiz punktidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun kompensatsiya to'lanadi.

7. O'zbekiston yoshlar ittifoqining:

Jamg'armani 2021-yil 1-yanvardan mustaqil nodavlat notijorat tashkilot sifatida qayta tashkil etish;

2021-yil 1-yanvardan boshlab "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan resurs mablag'lari bo'yicha tijorat banklarining Jamg'arma oldidagi majburiyatlarini Davlat budjeti oldidagi majburiyatlar sifatida qayta rasmiylashtirish va har yili ushbu majburiyatlarning Davlat budjetiga qaytarilgan qismi hisobidan Agentlikning ustuvor dasturiy vazifalari amalga oshirilishini moliyalashtirish;

Jamg'arma tomonidan uning va filiallari tuzilmasi, shtatlar birligini olingan daromadlaridan kelib chiqib mustaqil belgilash hamda Jamg'armaning tuman (shahar) filiallarini maqbullashtirish to'g'risidagi takliflari qo'llab-quvvatlansin.

8. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda o'ziga yuklatilgan vazifalarni sifatli va yuqori saviyada amalga oshirish uchun qo'shimcha daromad manbaalarini belgilash yuzasidan normativ-huquqiy hujjat loyahasini ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlari doirasida 2020-yilda Dasturda ko'zda tutilgan tadbirlar uchun mablag'lar ajratsin, 2021-yildan boshlab esa har yili zarur budjet mablag'larini nazarda tutsin. Bunda, O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi [Qonuniga](#) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar xarajatlarni moliyalashtirish 2020-yil uchun O'zbekiston yoshlar ittifoqiga davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

10. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

11. Mazkur Farmon ijrosi quyidagi tartibda amalga oshirilsin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov — hududlar, vazirlik, idora va tashkilotlar kesimida yoshlar siyosati samaradorligini baholab borish va muammolarni bartaraf etishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar belgilash, mamlakatning xalqaro reytinglardagi mavqeyini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini ta'minlash choralarini ko'rsin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktori — yoshlar orasidan istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirishni nazarda tutuvchi tashabbuskor, islohotlarni amalga oshirish va joylardagi muammolarni hal etishda faol ishtirok etuvchi, rahbarlik lavozimlariga munosib yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi "Vatan iftixorlari" institutsional tizimini joriy etsin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) hokimlari — yoshlar muammolarini o'rganib, ularning hal etilishiga ko'maklashsin, yosh avlodning iste'dodi va qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratish choralarini ko'rsin, shuningdek, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oyda kamida bir marotaba tegishli xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida hisobot berib borsin.

12. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari B.A. Musayev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 30-iyun,
PF-6017-son

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

DASTURI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
1.	Yoshlarning innovatsion, amaliy va istiqbolli startap loyihalariga grant mablag'lari ajratish.	1. Yoshlarning innovatsion, amaliy va istiqbolli startap loyihalari bo'yicha respublika miqyosida tanlov o'tkazish. 2. Tanlov natijasiga ko'ra: 2020-yilda kamida 10 ta; 2021-yildan boshlab har yili kamida 20 ta eng yaxshi startap loyihalarga 50 mln so'mdan 200 mln so'mgacha grant mablag'lari ajratish.	2020-yil 1-dekabr 2021-yildan boshlab har yili 1-sentabr	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov) Savdo-sanoat palatasi (A. Ikramov)
2.	O'z iqtidori va salohiyatini kamol toptirish, kelajakda qiziqqan sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun yoshlarda o'zini o'zi rivojlantirish bo'yicha kuchli motivatsiya uyg'otish maqsadida keng yoshlar davrasida xalqaro miqyosda yuqori nufuzga ega notiqalar jalb qilingan holda motivatsion tadbirlar o'tkazish.	Yoshlarda o'zini o'zi rivojlantirish bo'yicha kuchli motivatsiya uyg'otish maqsadida har yili kamida bir marotaba keng yoshlar davrasida ushbu yo'nalishda xalqaro miqyosda yuqori nufuzga ega notiqalarni jalb qilgan holda motivatsion tadbirlar o'tkazish.	2021-yildan boshlab har yili yil davomida	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Tashqi ishlar vazirligi (A. Kamilov), manfaatdor vazirlik va idoralar
3.	Hududlarda yoshlar bandligiga ko'maklashish maqsadida quduqlar burg'ulash (qazish), sug'orish vositalari xarid qilish, yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'lik va ko'chatlar sotib olish uchun subsidiyalar ajratish.	1. Yoshlarga quduqlar burg'ulash (qazish), sug'orish vositalari xarid qilish, yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'lik va ko'chatlar sotib olish uchun subsidiyalar ajratish tartibini ishlab chiqish. 2. Belgilangan tartibda subsidiyalar ajratib borish.	2020-yil 1-sentabr Doimiy ravishda	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (A. Ortiqov)
4.	Xalqaro fan olimpiadalarida o'quvchi yoshlarning yuqori saviyadagi ishtirokini ta'minlash.	Xalqaro matematika olimpiadasi (International Mathematical Olympiad (IMO), Xalqaro fizika olimpiadasi	Doimiy ravishda	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov),

		(International Physics Olympiad (IPhO), Xalqaro kimyo olimpiadasi (International Chemistry Olympiad (IChO), Xalqaro informatika olimpiadasi (International Olympiad in Informatics (IOI)xalqaro fan olimpiadalarida o‘quvchi yoshlarning: yuqori darajada tayyorgarlik ko‘rishlari uchun “Yoshlar oromgohi”da o‘quv bazasi tashkil etish, respublika va xorijlik malakali mutaxassislar jalb qilish hamda ular uchun barcha zarur sharoitlarni ta‘minlash; ishtirokini tashkil etish bilan bog‘liq (sutkalik, yashash, transport, viza) xarajatlarni qoplash.			Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi (<i>I. Madjidov</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>A. Kamilov</i>)
5.	Iqtidorli va jamoat ishlarida faol bo‘lgan yoshlarni (birinchi navbatda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan oilalarning farzandlari) bepul yo‘llanmalar asosida oromgohlarga yuborish.	Fanlarni “a‘lo” va “yaxshi” baholarga o‘zlashtirayotgan iqtidorli va jamoat ishlarida faol bo‘lgan 500 nafar yoshlar (birinchi navbatda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan oilalarning farzandlari)ni bepul yo‘llanmalar asosida oromgohlarga yuborish.	2021-yildan boshlab har yili reja asosida	O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Xalq ta‘limi vazirligi (<i>Sh. Shermatov</i>), Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi (<i>I. Madjidov</i>)
6.	Yoshlarni kelgusida tegishli sohada malakali mutaxassis bo‘lib yetishishlari, shu jumladan tadbirkorlikka o‘qitish uchun mamlakatimizda yuqori natijalarga erishgan soha mutaxassislarini jalb etgan holda respublikaning turli hududlarida bepul o‘quv mashg‘ulotlar o‘tkazish.	Yoshlarni kelgusida tegishli sohada malakali mutaxassis bo‘lib yetishishlari, jumladan tadbirkorlikka o‘qitish uchun mamlakatimizda yuqori natijalarga erishgan soha mutaxassislarini jalb etgan holda hududlarda kamida 200 ta bepul o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish.	2021-yildan boshlab har yili yil davomida	O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Savdo-sanoat palatasi (<i>A. Ikramov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
7.	Xalqaro yosh tadbirkorlar biznes forumi va startap tadbirlar o‘tkazish.	1. Xalqaro yosh tadbirkorlar biznes forumini o‘tkazish. 2. “Yoshlar oromgohi” bazasida xalqaro startap tadbirlarini o‘tkazish.	2021-yildan boshlab har yili yil davomida 2021-yildan boshlab har ikki yilda bir marotaba	O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Savdo-sanoat palatasi (<i>A. Ikramov</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>A. Kamilov</i>)

8.	Bitiruvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida barcha hududlardagi oliy ta'lim muassasalarida biznes akseleratorlar tashkil etish.	Barcha hududlardagi oliy ta'lim muassasalari bazasida bosqichma-bosqich biznes akseleratorlar tashkil etish.	Reja asosida	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I. Madjidov)
9.	O'zbekiston yoshlari portalini tashkil etish va unda yoshlar siyosatini baholash milliy indeksleri, yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish.	1. O'zbekiston yoshlari portalini tashkil etish. 2. Portalda yoshlar siyosatini baholash milliy indeksleri va yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish.	2020-yil 1-dekabr Doimiy ravishda	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sodiqov)
10.	Yosh tadbirkorlarning xalqaro forum va yarmarkalardagi ishtirokini ta'minlash.	100 nafar yosh tadbirkorlarning xalqaro forum va yarmarkalardagi ishtirokini ta'minlash.	2021-yildan boshlab har yili yil davomida	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (L. Qudratov)
11.	Yoshlarni tadbirkorlik va ishbilarmonlikka qiziqtirish hamda ularga bunday faoliyatni yo'lga qo'yishning amaliy jihatlarini o'rgatish maqsadida joylardagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tashkilotlariga biznes sayohatlar tashkil etish.	Yoshlarni tadbirkorlik va ishbilarmonlikka qiziqtirish hamda ularga bunday faoliyatni yo'lga qo'yishning amaliy jihatlarini o'rgatish maqsadida joylardagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tashkilotlariga 200 ta biznes sayohatlar tashkil etish.	2021-yildan boshlab har yili yil davomida	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Savdo-sanoat palatasi (A. Ikramov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar va hokimliklari
12.	Yoshlarni kasbga o'rgatish bilan bog'liq, shuningdek, yosh tadbirkorlarga huquqiy, buxgalteriya, marketing, brending, bank, sug'urta, mehnat va boshqa sohalarida amaliy ko'mak ko'rsatish uchun konsalting xizmatlari xarajatlarini qoplash.	Yoshlarni kasbga o'rgatish bilan bog'liq, shuningdek, yosh tadbirkorlarga huquqiy, buxgalteriya, marketing, brending, bank, sug'urta, mehnat va boshqa sohalarida amaliy ko'mak ko'rsatish uchun 500 ta konsalting xizmatlari xarajatlarini qoplash.	Har yili yil davomida	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Savdo-sanoat palatasi (A. Ikramov), manfaatdor vazirlik va idoralar
13.	Yosh tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'rgazmali savdo yarmarkalarini tashkil etish.	Yosh tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida kamida 20 ta ko'rgazmali savdo yarmarkalari tashkil etish.	Har yili yil davomida	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Savdo-sanoat palatasi (A. Ikramov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar va hokimliklari

14.	Biznesni yo'lga qo'yishdan daromad olishgacha bo'lgan masalalarni o'rgatishga qaratilgan masofaviy o'quv mashg'ulotlari o'tkazish va qo'llanmalar yaratish.	Alohida tadbirkorlik yo'nalishlari bo'yicha biznesni yo'lga qo'yishdan daromad olishgacha bo'lgan masalalarni o'rgatishga qaratilgan masofaviy o'quv mashg'ulotlari o'tkazish va qo'llanmalar yaratish.	2021-yildan boshlab doimiy ravishda	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Savdo-sanoat palatasi (A. Ikramov) manfaatdor vazirlik va idoralar
15.	Iqtidorli yosh adiblar, rassomlar va hunarmandlar o'rtasida ijodiy ko'rik tanlovlari tashkil etish, yosh mualliflarning ijod namunalari, jumladan, birinchi kitoblarini nashr etish, san'at asarlarini yaratish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish.	Iqtidorli yosh adiblar, rassomlar va hunarmandlar o'rtasida ijodiy ko'rik tanlovlari tashkil etiladi, yosh mualliflarning ijod namunalari, jumladan, birinchi kitoblarini nashr etish, san'at asarlarini yaratish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish.	Doimiy ravishda	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (D. Saidjonov), Yozuvchilar uyushmasi (S. Sayidov)
16.	Yoshlarning xalqaro mehnat bozorlariga chiqishiga ko'maklashish.	Yoshlarning xalqaro mehnat bozorlariga chiqishiga ko'maklashish bo'yicha zarur choralarni ko'rish.	Doimiy ravishda	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Yoshlar ishlari agentligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov), Tashqi ishlar vazirligi (A. Kamilov)

**O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirish
borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash**

TARKIBI

B.A. Musayev	— O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi
<i>lavozimiga ko‘ra</i>	— O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi o‘rinbosari
O.A. Nazarbekov	— O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri
Sh.X. Shermatov	— O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri
I.U. Madjidov	— O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri
A.V. Shin	— O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vaziri
R.T. Mamatov	— O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri
T.A. Ishmetov	— O‘zbekiston Respublikasi moliya vaziri
N.B. Xusanov	— O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri
I.Y. Abduraxmonov	— O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziri
Sh.M. Sodiqov	— O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri
A.X. Kamilov	— O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri
S.S. Saidkarimov	— O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosari
A.J. Ortiqov	— O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari
L.Sh. Qudratov	— O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirining birinchi o‘rinbosari
A.I. Ikramov	— O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri o‘rinbosari
H.A. Qarshiyev	— O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri o‘rinbosari
A.I. Ikramov	— O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi
A.U. Akkulov	— O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari
D.M. Saidjonov	— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari
M.M. Xodjimatomov	— Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari
F.F. Abdullaxolliqov	— “O‘zbekkino” Milliy agentligi bosh direktori
A.V. Nuridinov	— O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi
S.S. Saidov	— O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
<i>lavozimiga ko‘ra</i>	— Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari
<i>lavozimiga ko‘ra</i>	— O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kotibiyat mudiri, Muvofiqlashtiruvchi kengash kotibi

Izoh: Muvofiqlashtiruvchi kengash a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash ishiga kelishilgan holda boshqa vazirliklar, idoralar, xo‘jalik jamiyatlari va fuqarolik jamiyati institutlari rahbarlari va mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.